XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING QARORI

Sherobod tumani, A.Navoiy ko‘chasi 22-uy. 191400, tel.: (+99876) 322-11-26

2022 - yil 14 - noyabr VI-56-246-8-119-K/22 Sherobod tuman hokimligi

Sherobod tuman mahalliy budjetining 2022-yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuniga muvofiq tuman budjetining joriy yil **3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi** mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2021-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuniga muvofiq, mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi va mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining joriy yil **3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi** mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman mahalliy budjetining joriy yil **3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi** mablag‘lari **423,0 mln.** so‘mni tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin. Ushbu mablag‘lar hisobidan **169,1 mln.** so‘m, ya’ni jami joriy yil **3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi** mablag‘larining **39,9 foizi** tumandagi tumanning ijtimoiy-iqtisodiy sohalari ijtimoiy infratuzilmasini va moddiy texnika bazasini rivojlantirish maqsadida ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda

vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan hisobot berib borilishi belgilansin.

7. Tuman budjetining qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan mablag‘ oluvchilarining rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Choriyev) zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **Davlatov Z.**

Xalq deputatlari Sherobod tuman
Kengashining
2022 yil 14 noyabrdagi
VI-56-246-8-119-K/22-son qaroriga
1-ilova

Sherobod tuman mahalliy budjetining joriy yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/R	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi	Ajratilayotgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming. so‘mda)	Foizda
Jami shakllangan mablag‘			**423 000,0**	
Jami: Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy sohalari uchun ajratilgan mablag‘			**169 100,0**	**39,9%**
1	Tuman hokimiyatiga	Tuman hokimligi balansidagi yengil xizmat avtotransportlarning joriy ta’mirlash xarajatlari uchun	15 000,0	
2	Tuman hokimiyatiga	Tuman hokimligi balansidagi yengil xizmat avtotransportlarga YMM olish uchun	15 000,0	
3	Tuman hokimiyatiga	Tuman hokimligi balansidagi binolarni qo‘riqlash xizmati uchun	20 000,0	
4	Tuman hokimiyatiga	E-Qaror elektron tizimi uchun	9 000,0	
5	Tuman hokimiyatiga	Matbuot xizmati xodimlaring sentabr, oktabr, noyabr hamda dekabr oyi ish haqqi va unga tenglashtirilgan mablag‘lari uchun 18 849 000 ajratma 25% 4 712 000	23 561,0	
6	Tuman hokimiyatiga	Tuman Ko‘zi ojizlar jamiyatiga ish haqqi uchun	15 792,0	
7	Tuman hokimiyatiga	Viloyat Kompyuterlashtirish DUK xizmati xarajatlari uchun	15 000,0	
8	Tuman hokimiyatiga	Tuman hokimligining foydalanilgan elektr energiya xarajati uchun	15 000,0	
9	Tuman hokimiyatiga	Xokim yordamchilari va sektorlarning Uz telekom internet xizmati uchun uchun	7 997,0	
10	Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limiga	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limining Uz telekom internet xizmati uchun	9 000,0	
11	Tuman hokimiyatiga	Tuman hokimligiga konvert marka sotib olish xarajatlari uchun	5 000,0	

12	Tuman hokimiyatiga	Foydalanilgan tabiiy gaz iste’moli uchun	2 000,0	
13	Tuman hokimiyatiga	Tumanda bo‘lib o‘tgan tadbirlarga tayyorlatilgan bannerlar qarzdorligi uchun	10 000,0	
14	Tuman hokimiyatiga	15-oktabr "Xalqaro qishloq ayollari kuni" munosabati bilan ayollarga duxovka sotib olish xarajatlari uchun	6 750,0	
Jami		X	**169 100,0**	